

## XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI.

**Ikromov Elyor Ibodulloyevich**

Osiyo xalqaro universiteti

"Iqtisodiyot" kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11002460>

**Annotatsiya.** *ushbu maqolada Xizmat ko'rsatish sohasi milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida, xususan, ehtiyojlarini qondirishda, aholi bandligini ta'minlash, turmush darajasi va sifatini oshirishda, davlat budjetini shakllantirishda munosib o'rin tutadi. Shu bilan bir qatorda, xizmat ko'rsatish sohasi ko'p tarmoqli va turli yo'nalishlarda faoliyat olib boruvchi sohadir. Xizmatlar sohasi mamlakat iqtisodiy o'sishi, arzon ish o'rinlari yaratish, bandlikni ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishda muhim ahamiyatga ega.*

**Kalit so'zlar:** *Xizmat ko'rsatish. servis, Milliy iqtisodiyot, YaIM, bandlilik. Xorij tajribalari.*

## FOREIGN EXPERIENCES OF SERVICE SECTOR DEVELOPMENT.

**Abstract.** *In this article, the service sector is an important component of the national economy. It plays a significant role in the socio-economic development of the country, in particular, in meeting its needs, providing employment, raising the standard and quality of life, and forming the state budget. In addition, the service industry is multi-disciplinary and operates in various directions. The service sector is important for the country's economic growth, creating cheap jobs, providing employment and reducing poverty.*

**Keywords:** *Service. service, national economy, GDP, employment. Foreign experiences.*

## ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ.

**Аннотация.** *В данной статье сфера услуг является важной составляющей национальной экономики. Он играет значительную роль в социально-экономическом развитии страны, в частности, в удовлетворении ее потребностей, обеспечении занятости, повышении уровня и качества жизни, формировании государственного бюджета. Кроме того, сфера услуг многопрофильна и действует в различных направлениях. Сектор услуг важен для экономического роста страны, создавая дешевые рабочие места, обеспечивая занятость и сокращая бедность.*

**Ключевые слова:** *Сервис. услуги, национальная экономика, ВВП, занятость. Зарубежный опыт.*

Iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar iqtisodiyotida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar xizmatlar sohasining tez sur'atlarda rivojlanishi bilan bog'liq. Bugun dunyo miqyosida insoniyat tomonidan yangi texnika va texnologiyalarni yaratish va ularni o'zlashtirish natijasida xizmatlar sohasi jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Rivojlangan davlatlar kabi mamlakatimizda ham xizmatlar sohasini rivojlantirish va aholining unga bo'lgan talabini to'liqroq qondirish maqsadida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning xorijiy tajribalarini o'rganamiz.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya va AQSH kabi rivojlangan davlatlarda XVIII asrda xizmatlar sohasi rivojlana boshlaganini va bunga asosiy sabab dunyo miqyosida sodir bo'lgan sanoat revolyutsiyasi ekanligini ko'rish mumkin.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi ko'p jihatdan boshqa tarmoq va sohalarning ixtisoslashuvi bilan ham bog'liqdir. Bugungi kunda rivojlangan davlatlar YAIMning 75%ini va rivojlanayotgan mamlakatlar YAIMning 50 %ini xizmatlar sohasi tashkil etmoqda.

Bu mamlakatlarning tajribasini o'zlashtirish maqsadida AQSH, Yaponiya, Germaniya va Buyuk Britaniya davlatlarida xizmatlar sohasini rivojlantirish tajribasini o'rganishga harakat qilamiz.

#### **AQSHning xizmatlar sohasini rivojlantirish tajribasi.**

Tarixiy jihatdan xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi jamiyatning tarixiy rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Jamiyat o'z taraqqiyotining turli bosqichlarida har doim ham xizmat turlari, sifati va texnikasiga yuqori talablar qo'ygan.

Iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasining alohida faoliyat turi sifatida taqsimlanishi XX asrning boshlarida sodir bo'lgan, o'sha davrda birinchi marta A. Fisher, keyinroq esa D. Bell nomoddiy ishlab chiqarish iqtisodiyotning uchinchi sektori to'g'risida fikr bildirgan.

U.Vitt va K.Grosslarning tadqiqotlariga ko'ra 1970 yildan 2005 yilgacha Amerika qo'shma shtatlarida transport va sanoatda arzon energiya vositalarining paydo bo'lishi mehnat unumdorligining oshishiga va xizmatlar sohasining jadal rivojlanishiga sabab bo'lgan.

AQSHda yaratilgan texnologik innovatsiyalar juda tez sur'atlar bilan turizm, bank-moliya, tibbiyot, ta'lim va boshqa xizmatlarga jalb etilishi sohaning yetakchi tarmoqqa aylanishiga sabab bo'ldi deyish mumkin.

#### **Yaponiyada xizmatlar sohasining rivojlanish tendensiyasi.**

Yaponiyada xizmat ko'rsatish sohasi sanoatni rivojlanishi ta'minlovchi sektor sifatida shakllangan, Xizmat ko'rsatish sohasida chakana va ulgurji savdoning ulushi yuqori hisoblanadi.

Yaponiyada 1980 yillardan boshlab reklama, ma'lumotlarni qayta ishlash, nashriyot, turizm, dam olish sohalari, ko'ngilochar va boshqa sohalar jadal rivojlana boshladi. Dastlab xizmat ko'rsatish sohalarining aksariyati kichik hajmda faoliyat yurituvchi va mehnat sig'imkorligi yuqori bo'lgan, hukumat tomonidan komp'yuter va elektron mahsulotlarning xizmat ko'rsatish sohasida qo'llanishi yo'lga qo'yilib texnologik jihatdan rivojlanib bordi.

Yaponiyada xizmat ko'rsatish sohasida bandlar ulushi, 75%ni tashkil etadi. Yaponiyada savdo, moliyaviy va sug'urta xizmatlari hamda bank xizmatlarini ko'rsatish xizmatlar sohasida yuqori o'rin egallaydi. Bugungi kunda Yaponiya iqtisodiyotida axborot, turizm, aloqa xizmatlarining ham roli oshmoqda.

Yaponiyada savdo xizmatlari rivojlangan. Savdo sohasi qo'shilgan qiymat yaratilgan tovarlar savdosiga asoslanadi. Yaponiyada xom ashyo import orqali kiriladi, qayta ishlanadi va qo'shilgan qiymat yaratilgan sanoat tovarlari eksport qilinadi. Yaponiya imperiyasi davrida savdo yengil sanoatga ixtisoslashgan edi. Ikkinchi jahon urushidan keyin neft va yoqilg'i mahsulotlari import qilinib, mashinasozlik, avtomobilsozlik, yarim o'tkazgichlar, yuqori texnologik uskunalarni eksport qilina boshlandi. Bu davr kelib, savdo og'ir va kimyo sanoati mahsulotlariga ixtisoslashdi. 1980 yildan boshlab Yaponiya savdo balansi ijobiy bo'la boshladi. 1990 yildan boshlab Yaponiya kompaniyalari qator ishlab chiqarish zavodlarni Osiyo mamlakatlariga ko'chira boshladi. Osiyo mamkatlarida ishlab chiqilgan tovarlarni esa import qilishga o'tdi.

Yaponiyada moliya xizmatlari rivojlangan. Mamlakat iqtisodiyoti moliya bozori infrastrukturasi rivojlanganligi o'z zaxiralarini va mavjud resurslarini samarali ishlata olgan.

2022 yilda xizmat ko'rsatish sohasiga ijtimoiy ta'minot (34,2 foiz), davlat qarziga xizmat ko'rsatish (23,6 foiz); mahalliy ajratmalar, soliq imtiyozlari va boshqalar (16,1 foiz), jamoat ishlari (6,1 foiz), ta'lim va fan (5,4 foiz) va milliy mudofaa (5,2 foiz) mablag' ajratilgan.

Yaponiyada transport xizmatlari yuqori darajada rivojlangan. Ayniqsa, mamlakatning yirik shaharlarini bog'lovchi "Sinkansen" tezyurar poyezdlari alohida e'tiborga sazovordir.

Yaponiyada turizm xizmatlari yaxshi rivojlangan. Har yili Yaponiyaga 30 mln. atrofida xorijiy sayyohlar tashrif buyuradi. Yaponiyaning eng muhim turistik resursi uning boy va betakror tarixiy-madaniy merosi hisoblanadi. Mamlakatda turizm iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i hisoblanadi. Yaponiyada turistlar uchun 1600 ta muzey, 357 ta milliy va prefektura parklari, 290 ta hayvonot bog'i va botanika bog'lari, 76 ta akvarium va "Tokio Disneylendi" qatorida 227 ta ko'ngilochar majmualar faoliyat yuritadi. Turizm xizmatlari hajmi yildan-yilga oshmoqda.

Yaponiyada xizmatlar sohasining jadal rivojlanishiga ushbu davlatdagi yirik korporatsiyalarning xorijga investitsiya kiritishi bilan ham bog'liq.

Xizmat ko'rsatish sohalari orasida restoran, reklama, ko'chmas mulk, mehmonxona va dam olish biznesi va ma'lumotlarni qayta ishlash sohalari rivojlangan.

**Germaniyada xizmatlar sohasining rivojlanishi.** Germaniya yuqori darajada shaharlashgan va sanoati rivojlangan davlatlardan biridir. Germaniyada xizmatlar sohasi, shu jumladan savdo va moliya bandlikning eng katta qismini tashkil qiladi. XXI asrning boshlarida ishchilarning taxminan beshdan bir qismi ishlab chiqarishda, 2 %i qishloq xo'jaligi bilan bog'liq sohalarda, qolgan qismi esa xizmat sohaslarida, ya'ni moliya, bank, maishiy xizmatlar, sug'urta va xizmat ko'rsatishning boshqa sohaslarida faoliyat olib boradi. Germaniyada aholi yoshi ulg'ayib borgan sari iqtisodiy o'sish sur'ati pasayib bormoqda. 2050 yilga borib, Germaniyada ishchi kuchi soni 28%ga qisqarishi prognoz qilingan.

Germaniya davlatida XX asrning o'rtalarigacha ishlab chiqarishni rivojlantirishga juda katta e'tibor berilgan bo'lsa, keyinchalik globalizatsiya va ixtisoslashuv jarayonlari tufayli xizmatlar sohasini rivojlantirishga e'tibor berila boshlandi. J.Gershuni va I.Maylsning tadqiqotlariga ko'ra rivojlangan davlatlarda, shu jamladan, Germaniyada insonlar ko'proq vaqtini xizmatlarni sotib olishdan ko'ra o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishni afzal bilishadi.

Germaniyada ish haqi xarajatlarining yuqoriligi sababli unumdorligi past bo'lgan xizmat turlarini rivojlantirish juda qimmatga tushadi, shu sababli, mamlakatda ko'p xizmatlar autsors shaklga o'tgan. Masalan, ko'pgina nemis korxonalarida dasturlash xizmatlari xorijiy korxonalar tomonidan ko'rsatadi.

Bugungi kunda Germaniyada malakali kadrlarga bo'lgan yuqori talab xizmatlar sohasi, ishlab chiqarish, chakana savdo va qurilish sohaslarida sezilmoqda. 2021 yilda malakali ishchilar yetishmovchiligi rekord darajaga yetib, mamlakat bo'ylab bo'sh ish o'rinlari soni 1,8 mlanni tashkil qildi. GFR hukumati Germaniyada ish topishdagi to'siqlarni kamaytirish maqsadida mamlakatning immigratsiyaga oid qonun hujjatlariga o'zgartirish kiritish rejalarini ishlab chiqdi.

**Buyuk Britaniyada xizmatlar sohasining rivojlanishi.** Buyuk Britaniyada 2016 yilda YAIMning 75%ini xizmatlar tashkil etgan va jami bandlarning 79%i xizmatlar sohasiga to'g'ri kelgan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida bo'layotgan o'zgarishlar xizmatlar sohasining tarkibi va ishlash tartibini tubdan o'zgartirib yubordi. Bugungi kunda Zoom, Skype kabi dasturlar insonlarga masofadan turib video muloqot qilish imkoniyatini yaratib berish bilan

birga mehnat bozorida dasturchi, tizim boshqaruvchisi kabi yangi ish o'rinlarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

1970 yilda Britaniya hukumati xizmatlar sohasida mehnat unumdorligini oshirish maqsadida sohada faoliyat olib boruvchi sub'yektlar uchun maxsus soliqlarni joriy etdi.

Britaniyada xizmatlar sohasida yangi imkoniyatlarni o'rganish va kelajakda rivojlanishtirish strategiyalarini tuzish bilan shug'ullanuvchi maxsus Xalqaro savdo departamenti tashkil etilgan.

Xizmatlar sohasini jadal sur'atlarda rivojlantirish uchun Buyuk Britaniyada statistik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish mexanizmi juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bugungi kunda mamlakat darajasida boshqaruv qarorlarini qabul qilishda intelluktual texnologiyalar (neural tarmoqlar va boshqa katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish algoritmlari) dan foydalanish odatiy holga aylandi. Virtual xizmatlarning rivojlanishi, ayniqsa, moliya sohasida an'anaviy xizmatlarning rivojlanishi katta xavf-xatarni keltirib chiqaradi. Virtual xizmatlar mijoz bilan to'g'ridan to'g'ri vositachilarsiz aloqaga kiradi va xizmat ko'rsatishda minimal xarajatni talab etadi. Shu sababli, kelajakda virtual xizmatlar an'anaviy xizmatlarning o'rnini to'liq egallaydi.

XX asrning oxirlariga kelib, chet el iqtisodchilari ommaviy shaklda xizmat ko'rsatish faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlarini ilmiy jihatdan tadqiq qilishga e'tibor bera boshladilar.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi insonlarning moddiy farovonligi va turmush sifati darajasini oshishiga olib keldi. XIX asrning oxirlarida E.Engel tomonidan aholi daromadini o'sishi bilan iste'mol tarkibini o'zgarishini statistik jihatdan bog'liqligi asoslangan edi. Uning qoidasiga ko'ra, aholining turmush sharoiti va daromadlari darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, iste'molchi daromadining katta qismini yuqori sifatli tovarlar va xizmatlarga sarflaydi. Boshqacha qilib aytganda, aholi daromadlari qanchalik yuqori bo'lsa, ular oilaviy byudjetining katta qismini servis xizmatlariga sarflashadi.

Rivojlangan mamlakatlarda oilaviy byudjetning 18-20%i oziq-ovqat mahsulotlariga, 35-40%i esa xizmatlarga sarflanadi.

1990 dan 2005 yilgacha AQShda xizmat sohasida faoliyat olib boradigan xodimning ish haqi sanoat sohasi xodimning ish haqini 67 %ni tashkil etgan. Yaponiyada xizmat sohasi xodimining ish haqi, sanoat xodimiga nisbatan 7 %ga, Germaniyada – 15 %ga kam bo'lgan. 1960 yillarda AQShda xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan bir ishchiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish hajmi sanoat xodimi ishlab chiqarishining 77,5 %ni tashkil etgan bo'lsa, 1992 yilga kelib, bu ko'rsatkich 69,4 %ni tashkil etgan. Shu vaqt oralig'ida bu sohada mehnat unumdorligi 0,35 %ga kamayib ketgan. Iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasining roli oshib borishiga qaramay, bu soha uzoq vaqt mobaynida unumsiz hisoblangan.

Xizmat ko'rsatish sohasida mehnat unumdorligini o'sish sur'ati statistikasi qiziqish uyg'otadi. XX asrning 80-yillarida xorijiy tadqiqotchilar YaIM hajmida xizmatlar hissasining o'sishini va postindustrial jamiyatda yuqori texnologiyali tarmoqlarda ayrim xizmatlarni ko'rsatish jarayonida mehnat unumdorligini yuqori bo'lmasligini talqin etishga harakat qilishgan.

Ba'zi bir rivojlangan mamlakatlarda unumdorlikni yuqori o'sish sur'atini ulgurji va chakana savdo, transport, moliyaviy, shuningdek, telekommunikatsiya va aloqa xizmatlarida ko'rishimiz mumkin. Xususan, o'tgan besh yil ichida bu tarmoqlarda unumdorlik Germaniyada 18%, Norvegiyada 17 %ni tashkil etgan.

D. Treplet va B. Bosvortlarning fikricha IT asosan xizmat sohasining besh tarmog'iga, ya'ni moliya, ulgurji va chakana savdo, ishblarmonlik xizmatlari, sug'urta va kommunikatsiya tarmoqlariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning xorijiy tajribalarini o'rganish va servis faoliyati unumdorligi nuqtai nazaridan ko'rsatkichlarni tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Xizmat ko'rsatish sohasi unumdorligi xizmat ko'rsatish jarayonida ITning ta'siri va iste'molchilarni jalb qila olish darajasi bilan bog'liq.

2. Xizmat ko'rsatish sohasi unumdorligi progressiv xizmatlar kategoriyasi bilan bog'liq.

3. Ijtimoiy xizmatlar tarkibida harakatsiz individual xizmatlar kamroq ahamiyatga ega.

Umuman olganda, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarning xizmatlar sohasini rivojlantirishdagi tajribalarini puxta o'rganish va samarali joriy etish mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish imkonini beradi.

## REFERENCES

1. Davronov, I. O., & Shadiyev, A. K. (2020). The cost-effectiveness of improving the quality of hotel services. *Academy*, (4), 40-42.
2. Kayumovich, K. O., Gulyamovich, D. I., & Khudoynazarovich, S. A. (2020). Information and information technologies in digital tourism. Special issue on financial development perspectives of the life standard in Central Asia, 32.
3. Khudoynazarovich, S. A. (2022). Features of evaluating the effectiveness of activities at the Bukhara State University. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 153-159.
4. Shadiyev, A. (2022). FEATURES OF EVALUATING THE EFFECTIVENESS OF ACTIVITIES AT THE BUKHARA STATE UNIVERSITY. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 23(23).
5. Базарова, М. С., Шарипова, М., & Нуруллоев, О. (2021). “РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ” ДА АҲОЛИНИНГ ИШ БИЛАН БАНДЛИГИ ХУСУСИЯТЛАРИ. САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ, 482.
6. Базарова, М. С. (2020). Развитие внимания дошкольников посредством дидактических игр. In *Исследования молодых ученых* (pp. 37-40).
7. Бозорова, М. С. (2021). Глава 10. Стратегия внедрения цифровых технологий и современных методов в образовательный процесс. In *Инновационное развитие науки и образования* (pp. 122-132).
8. Базарова, М. С. (2021). ЭКОНОМИКА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И РОЛЬ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЕЁ РАЗВИТИИ. In *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации* (pp. 350-354).
9. Supieva, V. M., & Firuza, S. (2023). STRATEGIC WAYS OF IMPLEMENTING PERSONNEL POLICY IN COMMERCIAL BANKS. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(7), 22-25.
10. Khalilov, B. (2023). FINANCIAL INDICATORS OF BUSINESS EFFICIENCY IN COMPANIES. *Modern Science and Research*, 2(10), 835-839.



11. Khalilov, B. (2023). FINANCIAL ELEMENTS OF BUSINESS STABILITY. *Modern Science and Research*, 2(12), 877-882.
12. Xalilov, B. (2024). ISSUES OF IMPROVING THE FINANCIAL MECHANISM OF SMALL BUSINESS ENTITIES. *Modern Science and Research*, 3(1), 747-753.
13. Xalilov, B. (2024). COBB-DOUGLAS PRODUCTION FUNCTION AND ITS IMPORTANCE IN BUSINESS MATHEMATICS AND ECONOMIC ANALYSIS. *Modern Science and Research*, 3(1), 754-758.
14. Khalilov, B. (2024). FOREIGN EXPERIENCE IN PERSONNEL MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 974-978.
15. қизи Рахмонқулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ХУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. "Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 6(14).
16. Raxmonqulova, N. O. (2022). THE IMPACT OF THE DIGITAL ECONOMY ON RESOURCE CONSUMPTION. In *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации* (pp. 476-480).
17. Raxmonqulova, N. (2024). MAIN PRIORITY DIRECTIONS OF REGIONAL ECONOMY DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 371-375.
18. Sh, Y. D., & Rakhmankulova, N. O. (2021). Risks in the Process of Digitalization of Business Activities. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMİY JURNALI*, 1(2), 19-22.
19. Sh, Y. D., & Rakhmanqulova, N. O. (2021). Innovative approaches to the use of digital technologies in theeconomy. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMİY JURNALI*, 1(2), 77-80.
20. Raxmonqulova, N. (2024). IMPORTANCE OF PERSONNEL MANAGEMENT IN BUSINESS DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(1), 13-17.
21. Jumaeva, Z. K., & Gafurov, E. O. (2022). Fiscal policy in ensuring the economic security of the state. In *Экономическая безопасность социально-экономических систем: вызовы и возможности* (pp. 358-361).
22. Ruzmetov, B., Ruzmetov, S., Bakhtiyarov, S., Dzhumaeva, Z., & Juraev, K. (2023). Formation of supporting points for production growth based on diversification of the regional industry. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 449, p. 01001). EDP Sciences.
23. Жумаева, З. К. (2024). Необходимость инновационного подхода в управлении организациями.
24. Jumayeva, Z. K., & Mamadjonov, G. N. (2024). Ways to Strengthen Financial Control in the Utilization of State Budget Funds. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 4(1), 61-64.
25. Жумаева, З. К. (2016). Эффективность стратегического управления предприятием. *Наука и образование сегодня*, (2 (3)), 60-62.
26. Жумаева, З. К. (2023). ПОТЕНЦИАЛ ИНВЕСТИЦИОННОЙ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ РЕГИОНА. *Gospodarka i Innowacje*., 41, 333-337.
27. ЖУМАЕВА, З. СТРАТЕГИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ТОЧЕК ПРОИЗВОДСТВЕННОГО РОСТА В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ. *ЭКОНОМИКА*, 4,

- 455-458.
28. Rasulova, N. N., & Jumaeva, Z. K. (2019). Uzbekistan oil and gas industry: history and development prospects. *Теория и практика современной науки*, (5 (47)), 52-57.
  29. Жумаева, З. К., & Расулова, Н. Н. (2019). Инновационный путь развития экономики Узбекистана. *Теория и практика современной науки*, (5 (47)), 224-226.
  30. Жумаева, З. К. (2019). СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕГИОНАХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. In *СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ* (pp. 148-152).
  31. Жумаева, З. (2023). МИРОВОЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. *Nashrlar*, 318-321.
  32. To'rayevna, S. N. (2024). YANGI IQTISODIYOT VA UNING MOLIYA BOZORLARIGA TA'SIRI. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 333-339.
  33. Sodiqova, N. (2024). TECHNOLOGY DISCOURSE AND THE POLITICAL ECONOMY OF NEW MEDIA. *Modern Science and Research*, 3(2), 376-384.
  34. Sodikova, N. (2024). THE MAIN DIRECTIONS OF PROVIDING THE BUSINESS SECTOR WITH QUALIFIED PERSONNEL. *Modern Science and Research*, 3(1), 133-139.
  35. Sodiqova, N. (2024). TADBIRKORLIK SOHASINI MALAKALI KADRLAR BILAN TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI. *Modern Science and Research*, 3(1), 123-132.
  36. Toshov, M. (2024). STRATEGIC MANAGEMENT OF HIGHER EDUCATION. *Modern Science and Research*, 3(2), 461-468.
  37. Toshov, M. (2024). PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM. *Modern Science and Research*, 3(2), 603-608.
  38. Mirzabek, T. (2023). Marketing Kommunikasialari Tizimida Og'r Muloqotlar Xususiyatlari. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(14), 388-391.
  39. Hakimovich, T. M. (2023). TA'LIM TIZIMI BOSHQARUVIDA PEDAGOGIK TAHLIL. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 415-420.
  40. Alimova, S. O. FEATURES OF THE STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEM OF INDUSTRIAL ENTERPRISES.
  41. Shamsiya, A. (2023). HR MANAGEMENT AND COACHING IN THE INNOVATIVE ECONOMY AS A METHOD OF BUSINESS MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 2(10), 712-717.
  42. Abidovna, A. S. (2024). THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM.
  43. Рахматов, Ж. А., Алимова, Ш. А., & Бобомуродов, К. Х. (2021). Стратегия инвестиционной политики Республики Узбекистан.
  44. Алимова, Ш. А., & Халимова, Д. Р. (2021). СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ СТРАТЕГИЙ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. In *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации* (pp. 340-344).

45. Alimova, S. (2023). THE CONCEPT AND TASKS OF A MODERN MANAGEMENT SYSTEM ENTERPRISE PERSONNEL. *Modern Science and Research*, 2(12), 1085-1090.
46. Alimova, S. (2024). THE IMPACT OF E-ACCOUNTING IN MODERN BUSINESSES. *Modern Science and Research*, 3(1), 928-932.
47. Alimova, S. (2024). THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM. *Modern Science and Research*, 3(2), 385-390.
48. Abidovna, A. S. (2024). FORMATION AND DEVELOPMENT OF CAREER AS PERSONNEL TECHNOLOGY OF HUMAN RESOURCE MANAGEMENT. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 327-332.
49. Alimova, S. A., & Khaitov, V. S. (2022). ON THE WAY OF TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN APPLICATION OF ELECTRONIC MARKETING STRATEGIES OPPORTUNITIES. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 303.
50. Akbarovna, N. N. (2024). OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF CRYPTOCURRENCIES IN THE DIGITAL ECONOMY. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 320-326.
51. Akbarovna, N. N., & Bahodirovich, X. B. (2023). AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARINI TUZISH TARTIBI.
52. Ikromov, E. (2024). SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF INCREASING THE EFFICIENCY OF SERVICE ENTERPRISES. *Modern Science and Research*, 3(2), 103-109.
53. Ikromov, E. (2024). FEATURES AND ADVANTAGES OF SERVICE ENTERPRISES. *Modern Science and Research*, 3(2), 98-102.
54. Ikromov, E. (2024). THE IMPORTANCE OF MANAGERIAL WORK IN THE USE OF MODERN MANAGEMENT PRINCIPLES AND METHODS. *Modern Science and Research*, 3(1), 18-23.
55. Ikromov, E. (2024). CLASSIFICATION OF LEADERSHIP STYLES IN THE MODERN MANAGEMENT SYSTEM. *Modern Science and Research*, 3(2), 615-621.
56. Ikromov, E. (2023). PROBLEMS IN IMPROVING THE FORECASTING OF LOCAL BUDGET REVENUES. *Modern Science and Research*, 2(10), 794-797.
57. Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBATDOSHLIKNI OSHIRISHDA INNOVATSION SALOHIYATNING AHAMIYATI.
58. Qudratova, G. (2024). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE POTENTIAL IN INCREASING COMPETITIVENESS. *Modern Science and Research*, 3(1), 933-938.
59. Qudratova, G. (2024). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE ACTIVITY IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Modern Science and Research*, 3(2), 1257-1261.
60. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2023). Oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish. *Science and Education*, 4(7), 476-481.
61. Bustonovna, J. Z. (2024). IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHDA DAVLATNING ROLI.
62. Bustonovna, J. Z. (2024). O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING BARQAROR



O'SISHIDA SANOAT TARMOQLARINING AHAMIYATI.

63. Jumayeva, Z., & Nozimova, A. (2023). Palyno-Morphological Study of Allergenic Flora of Samarkand, Uzbekistan. *American Journal of Plant Sciences*, 14(5), 533-541.
64. Jumayeva, Z., Nurullayeva, N., Nozimova, A., Tursunboev, X., & Dosjanova, G. (2024). Dynamics and characteristics of allergenic plant pollen in the Republic of Uzbekistan. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 498, p. 02015). EDP Sciences.
65. Jumayeva, Z. (2024). IMPORTANCE OF INDUSTRIAL NETWORKS IN THE SUSTAINABLE GROWTH OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 3(2), 257-262.
66. Jumayeva, Z. (2024). THE MAIN WAYS OF EFFECTIVE WORK ORGANIZATION IN THE MODERNIZATION OF THE ECONOMY. *Modern Science and Research*, 3(2), 366-370.